XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA JADID TA'LIM TIZIMI

Mannobova Munisa O'ktamjon qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi 1-kurs magistranti
munisamannobova18@gmail.com
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent Ikramova I.R.

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning muhim bo'g'ini bo'lgan jadidchilik harakati hamda uning doirasida amalga oshirilgan ta'lim tizimi islohotlari tadqiq etiladi. Yangi usul maktablarining tashkil etilishi, ularning an'anaviy maktablardan farqli jihatlari, o'qitish metodikasi va darsliklar yaratish sohasidagi yangiliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov kabi jadid ma'rifatparvarlarining milliy uyg'onish va xalq savodxonligini oshirish yo'lidagi xizmatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, yangi usul maktablari, Ismoilbek Gasprinskiy, "Tarjumon" gazetasi, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, "Behbudiya" kutubxonasi, "Oyina" jurnali.

KIRISH

Turkiston o'lkasi tarixining eng murakkab, ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarga boy va shu bilan birga milliy uyg'onish poydevori qo'yilgan davri XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga to'g'ri keldi. Rossiya imperiyasining mustamlaka zulmi ostida qolgan o'lkani iqtisodiy qoloqlik, diniy mutaassiblik va jaholat botqog'idan olib chiqish o'sha davr ziyolilari uchun ulkan mas'uliyat o'laroq yuklatildi. "U ijtimoiy turmushning barcha jabhalarini qamrab olgan edi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, mazkur davrda yuzaga chiqqan na siyosiy, na madaniy biror hodisa yo'qki, uning e'tibor va ta'sir doirasidan chetda qolgan

bo‘lsin”1. Mana shunday ijtimoiy vaziyatda yuzaga kelgan jadidchilik harakati nafaqat siyosiy va madaniy, balki ma’rifiy bosqichni ham boshdan kechirdi. Bu o‘z navbatida zamon talablariga javob beradigan, diniy va dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtiradigan, ta’lim tizimini qayta isloh qilish orqali amalga oshirilar edi. Jadidchilikning shakllanishida “jadid – yangi” atamasining o‘zi islohot harakati ekanligini anglatib turadi. ““Jadidchilik”ning asosida “jadid” so‘zi yotadi. “Jadid”ning ma’nosi “yangi” demakdir. U shunchaki “yangi” yo bo‘lmasa, “yangilik tarafdori” degani emas. Balki, “yangi tafakkur”, “yangi inson”, “yangi avlod” singari keng ma’nolarni o‘zida mujassam etgan”2. Jadidchilik harakati Turkiston o‘lkasiga qrim-tatar ma’rifatpavari Ismoilbek Gasprinskiy tashabbusi bilan kirib kelgan.

TAHLIL VA METODLAR

Turkiston jadidlarining ma’rifatparvarlik harakatlari va ta’lim tizimidagi islohotlari hozirgi davrga qadar tadqiq etilishda davom etib kelinmoqda. Mustaqillik yillaridan so‘ng ularning faoliyatiga doir barcha merosi qayta o‘rganildi. Shu jumladan D.Alimova, B.Qosimov, X.Alimova, S.Tilavov va S.Ayniy kabi ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar o‘zlarining ilmiy ishlarida jadidlarni jonlantirdilar. Shunday bo‘lsa-da, jadidlarning faoliyati katta mashaqqatli mehnat talab etadi va ko‘p qirrali ekanligi bois hali hamon o‘rganilishda davom etib kelmoqda. Ayniqsa, yangi usul maktablarining hududlarda tashkil etilishi, hududiy ta’lim tizimi, yaratilgan darsliklarning mohiyati, pedagogik uslublarning qo‘llanilishi borasidagi qarashlar e’tiborli jihatlardan biri.

Mazkur maqolani tadqiq etishda tarixiylik, tahliliylik va tizimlilik singari bir qancha metodlardan foydalangan holatda keng-ko‘lamli yoritib berishga harakat qilindi.

1 Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 4.

2 Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 5.

NATIJALAR VA MULOHAZALAR

Jadid namoyondalari nillatning istiqloli, iqtisodiy mustaqilligi va ijtimoiy taraqqiyoti bevosita xalqning ongi hamda ommaviy savodxonlik darajasiga bog‘lq ekanligini chuqur anglagan shaxslar bo‘lgan. “1911-yilda Toshkentning Eski shahar qismida 333, yangi shahar qismida 16 masjid, 17 madrasa bo‘lgan”3. Shu sababli, Turkistonda asrlar davomida o‘zgarmasdan kelayotgan an’anaviy maktab va madrasalar tizimini tanqidiy qayta ko‘rib chiqish hamda zamonaviy tabiiy va gumanitar fanlarni o‘qitishga asoslangan yangi usul maktablarini tashkil etish harakatning bosh strategik g‘oyasiga aylandi. “Jadidchilikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktabi edi”4. Bu tabiiy holat bo‘lgan. Negaki, jamiyatni qaytadan yangilash maqsad bo‘lsa, uni yangi o‘sib kelayotgan ziyoli avlodgina amalga oshira oladi. Shuning uchun bunday yoshlarni tarbiyalash yetishib chiqshini ta’minlash maqsadida yangi usul maktablari o‘z faoliyatini boshlagan. Ushbu maqsadga birlashtiruvchi g‘oyani dastlab Ismoilbek Gasprinskiy olib kirgan. Uning faoliyati va qarashlari bilan bevosita tanishganjadidlarning otasi Mahmudxo‘ja Behbudiy bu ma’rifiy jarayonni takomillashtirgan. Xususan, ytaqin do‘sti Hoji Muin va boshqalar bilan yangi usuldagi maktablaarni tashkil etganlar. Bilamizki, jadidchilik harakati siyosiy jarayon sifatida o‘rtaga chiqqunga qadar ma’rifatparvar olimlar shu kabi g‘oyalarni ilgari suradilar. “Eski usuldagi ta’limotga birinchi bo‘lib norozilik bildirgan Ahmad Donish (1827-1897) bo‘lib, u o‘z tashabbusi bilan astronomiya, geometriya, matematika, tarix, filologiya va tarjimai hol san’atini puxta egallagan. U ixtiyoriy ravishda o‘qituvchi bo‘lishdan bosh tortgan va shu tariqa madrasalarda an’anaviy ta’limga norozilik bildirgan”5. Eski ta’lim tizimidan qochish va yangi ta’limni joriy etish haqidagi qarashlar ma’rifatparvar Ahmad Donishda uchraydi. “Sadriddin Ayniy Markaziy Osiyoda

3 Qosimov B. O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. – T.:Fan va texnologiya, 2008. – B. 81.

4 Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 17.

5 Айний С. Бухоро инқилобининг тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти, 1957. – Б. 135.

jadidchilikning birinchi salafi XIX asrning ikkinchi yarmidagi Buxoroning atoqli olimi, ma’rifatparvari, yozuvchisi va jamoat arbobi Ahmad Donish deb hisoblagan”6. Bundan bilsak bo‘ladiki, qaysidir ma’noda ma’rifatparvarlarning g‘oyalarini jadidlar yuzaga chiqardilar va amalga oshirishga harakat qildilar. Dastlab jadid maktablari tashkil etilgach barmoq bilan sanoqli darajada oz bo‘lgan. Keyinchalik esa birin-ketin yangi usuldagi maktablar soni ko‘payib borgan. Yangi usuldagi maktablar bilan bir qatorda rus-tuzem maktablari ham rus hukumati tomonidan tashkil etilgan edi. Sababi, bolalarni savodli qilishda rus tilini singdirish, o‘z siyosiy va mafkuraviy jihatlari orqali tarbiyalash bo‘lgan. Shu bilan bir qatorda o‘zimizning oddiy mahalliy xalq uchun ham bu jarayonlar biroz g‘ayritabiiy tuyuladi. Masalan, yangi usuldagi maktablarda til o‘rganish, zamonaviy ilmlarni egallash markaziy o‘rin egallagan. Shunday holatlarda ayrim ota-oanalar farzandlarini bunday ilmga ega bo‘lishini, ayniqsa til o‘rganish dindan ajratishini va farzandi kofirga aylanishini tushunadilar. Mana shunday qarshiliklar bo‘lib tursa ham Ismoilbek Gaspirinskiy rus hukumatiga qat’iy qarshiliklar bilan chiqib Turkiston o‘lkasida yangi maktablarni tashkil etishga erishadi. “Ismoilbek yangi maktab g‘oyasidan voz kechmadi. Aksincha, u haqdagi fikrlarini tezroq shakllantirishga, o‘ylab yurgan rejalarini amalga oshirishga kirishdi. 1884-yilda “usuli jadid” nomi bilan yangi maktab ochdi”7.

Toshkent, Buxoro, Samarqand, Qo‘qon va shu singari bir qancha hududlarda maktablar ochila boshlaydi va asta-sekin ularning soni ortib boradi. Hatto, 1917-yilda fevral voqealari paytida Turkistonda 92 maktab bor ekanligi qayd etiladi. Mana shuncha maktablar orasida juda ko‘p qismi ruxsatnomasiz faoliyat olib borgan. Ammo, ruxsatnoma bilan ish olib maktablar ham bo‘lgan. Jumladan, A.V.Pyaskovskiy Toshkentdagi birinchi o‘zbek maktabi Munavvar qori Abdurashidxonov tarafidan tashkil etilganligini ta’kidlab o‘tar ekan, uning so‘zlari

6 П.М. Мирза-Ахмедова, Д.А.Рашидова. К изучению джадиского движения // Общественные науки в Узбекистане. 1990, №7. – С. 30.

7 Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 20.

buning yorqin namunasidir. Tarixchi “Ayniy 1903-yilda Samarqandda ochilgan birinchi yangi usuldagi maktab haqida gapiradi. Bu mulla Abdulqodir Shakuriy tomonidan asos solingan “Shakuriy maktabi” edi”8 deydi.

Maktablar tashkil etilgandan so‘ng ularda ta’limni yo‘lga qo‘yish, turli xil metodlardan foydalanish, darsliklar yaratish ehtiyojlari yuzaga keladi. “1888-yilda ushbu maktablar uchun birinchi darslik “Xojai sibyon” (“Bolalar muallimi”) ni bosmadan chiqardi. “Usuli jadid”ga bo‘lgan ehtiyojni tushuntirdi, “usuli qaadim”dan farqiga e’tiborni qaratdi”9. Bu darslik albatta maktab asoschisi Ismoilbek Gasprinskiy tarafidan yaratildi. Shundan so‘ng qolgan jadidlar ham o‘z darsliklarini yaratib bordilar. Ayrim maktablarda boshqa jadidlarning darsliklaridan foydalanildi. “O‘z qishlog‘i Rajabaminda yangi usuldagi maktab ochgan Abduqodir Shakuriy tatar pedagogi Abdulhodiy Maqsudiyning “Muallimi avval”, “Muallimi soni” darsliklaridan, keyinchalik “Jamiul-hikoyat”, “Zubdat ul-ash’or” nomli o‘zi yozgan darsliklardan foydalangan”10.

Turkiston o‘lkasida yangi usuldagi maktablarni tashkil etishda yetakchilik qilgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘zi ham bir qancha darsliklar yaratadi. Xususan, u yaratgan darsliklar dastlabki bilimlar uchun va keyinchalik yuqori darajaga chiqqandan so‘ng esa aksariyat jug‘rofiyaga oid bo‘lgan. Negaki, Behbudiy bu sohada yetarli darajada izlanishlar olib borgan. Uning darsliklari turkiy tilde tuzilganligi bilan ajralib turadi. Uning aksariyat yaratgan darslik va qo‘llanmalining aniq sotuv narxi bo‘lsa-da, Behbudiy boshchiligida tashkil etilgan maktablarga bu manbalar tekinga tarqatilgan. “Behbudiy o‘z rahnamoligida ochgan maktablari uchun darslik yozgan, nashr ettirgan va ularni “tekinga tarqatgan”

8 П.М. Мирза-Ахмедова, Д.А.Рашидова. К изучению джадиского движения // Общественные науки в Узбекистане. 1990, №7. – С. 31.
9 Mana shu manba. – Б. 21.
10 Ш. Исмаилов. Новометодные школы в Туркестане конца XIX - начала XX века// Общественные науки в Узбекистане. 1976, №2. – С. 56.

yagona muallim edi”11. Darsliklar bilan bir qatorda barcha kitoblar va manbalarni jamlagan “Behbudiya” kutubxonasini ochadi. Eng asosiy jihati 1908-yilda bu kutubxonani rasmiy tarzda Samarqandning Oyina mahallasida ochiladi. Bu kutubxonada chet el jurnallari va gazetalaridan namunalar, xaritalar, bir qancha darsliklar va to‘plamlar, darslarni tashkil etish kerakli bo‘lgan barcha materiallarni jamlashga harakat qilgan. Kutubxonadan foydalanish uchun yillik badal pulio ham belgilangan. Bundan jamlangan pullarga Behbudiy nashriyot uchun sarmoya kiritgan. Shuning “Oyina” jurnali orqali bir qancha maqola va to‘plarni nashr ettirib kutubxonasini boyitib borgan.

Yetarlicha manba va materiallarga ega bo‘lgan maktablarda darslarni tashkil etishda turlicha yondashuvlar berilgan. Xususan, o‘quvchi bolalarning yoshlari teng bo‘lmagan va ularga bir sinfda darslar tashkil ettirilgan. Maktablarda o‘quvchilarning soni ortib borgan va sifatli ta’lim tashkil etishga harakat qilingan. Yangi usuldagi maktablarga bunday talabning ortishiga asosiy sabablardan biri esa bolalar uchun tan jazosining qo‘llanilmasligi va imtihonlardan yaxshi natijalarga erishganligidir. Maktablarda qulay sharoitlar yaratishga harakat qilingan. Ayrim maktablarda xarita va globuslardan ham foydalanilgan. Aniq va tabiiy fanlar o‘qitilishiga alohida e’tibor berilgan. Chunki, bu fanlar jahonning ko‘plab rivojlanib borayotgan mamlakatlarida o‘qitilar va bizning avlodlar ular singari yetuk shaxslar bo‘lib yetishadi degan maqsadlar ko‘zlangan. Til o‘rgatish esa maktabning eng muhim tashabbusi hisoblangan. Ayniqsa rus tilini o‘z milliy mafkuramizga mos tarzda o‘rgatishga maxsus yondashuvlar berilgan. Negaki, bizning xalqimiz rus hukumatiga qaram holatda yashar ekan, har bir sohada ularning yordamisiz hech bir harakat qila olmas holatga kelib qolgan edik. Shundan so‘ng til o‘rgangan farzandlar o‘z yurtimizning rivojiga hissa qo‘shadi va har bir sohada o‘z faoliyatini olib boradi deb baholangan. Ota-onalarning qabul qilishi biroz qiyin bo‘lgan, ammo jadidlar bunday to‘siqlarni yengib o‘tganlar.

11 Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi,2022. – B. 70.

Hatto, yanada ta’limni isloh etish maqsadida talaba-yoshlarni chet elga o‘qish uchun yuborganlar.

XULOSA

Turkistonda jadid namoyondalari asrlar davomida o‘zgarmasdan kelgan va an’anaviy ta’lim jarayoni sababli ortda qolib ketgan ma’rifat qoloqligiga chek qo‘ydilar. Shunday bo‘lsa-da, “usuli jadid” maktablari diniy qadriyatlarni inkor etmagan holatda zamonaviy dunyoviy fanlar bilan ularni uyg‘unlashtira oldilar. Bunday yondashuv o‘lka yoshlarining nafaqat ma’naviy, balki zamon bilan hamnafas tarzda rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Jadidlarning yaratgan o‘quv darsliklari esa ushbu hududa ilk pedagogik faoliyatning erkin yo‘lga qo‘yilishi, metodlarning ishlab chiqilishida tamal toshi bo‘ldi. Hatto, bu darsliklarning mazmun-mohiyatida bolalarning tanqidiy fikrlashiga oid, milliy g‘urur, yagona til va umuminsoniy qadriyatlar singdirilgan. Umuman olganda, yangi usuldagi maktablar faqatgina ta’limni isloh etish uchun emas, balki millatni jaholat botqog‘idan olib chiqish, xalqning milliy o‘zligini anglatish uchun xizmat qildi. Bugungi kunga kelib mustaqil O‘zbekistonimizda yangi qadamlar tashlash, milliy ta’lim tizimi va jahon bilan hamohang tarzda rivojlanish, islohotlarni amalga oshirishda jadidlarning ilmiy merosi asosiy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi,2022. – 156 b.
2. Qosimov B. O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. – T.:Fan va texnologiya, 2008. – 600 b.
3. Ш. Исмаилов. Новометодные школы в Туркестане конца XIX - начала XX века// Общественные науки в Узбекистане. 1976, №2. – С. 55-59.
4. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 400 б.

5. П.М. Мирза-Ахмедова, Д.А.Рашидова. К изучению джадиского движения // Общественные науки в Узбекистане. 1990, №7. – С. 30-40.
6. Айний С. Бухоро инқилобининг тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти, 1957. – 256 б.